

**MAJBURIYATLARNI BAJARILISHI SUD ORQALI TA'MINLASHNING AYRIM**

**JIHATLARI**

**Rajabov Sherzodbek Ravshanbekovich**

Adliya vazirligi xodimi, huquq magistri,

Toshkent shahri, O'zbekiston

E-mail: sherzodbekrajabov@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqola majburiyatlarni bajarilishi sud orqali ta'minlashning huquqiy asoslari va ahamiyati ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, fuqaroviylar munosabat hisoblangan majburiyatlarning sud orqali bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq masalalarning o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan hamda sohaga oid muammolar va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan taklif va mulohazalar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** sud, majburiyat, burch, kreditor, qarzdor, solidar qarzdor, shartnomalar, bitim, dalillar, da'vogar, javobgar.

**НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛНЕНИЯ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ В СУДЕ**

**Раджабов Шерзодбек Равшанбекович**

Сотрудник Министерство юстиции, магистр права,

г. Ташкент, Узбекистан

Электронная почта: sherzodbekrajabov@gmail.com

**АННОТАЦИЯ:** Также были проанализированы специфические аспекты вопросов, связанных с обеспечением исполнения гражданско-правовых обязательств через суд, и выдвинуты предложения и замечания, направленные на устранение проблем и недостатков, относящихся к сфере.

**Ключевые слова:** суд, обязательство, долг, кредитор, должник, солидарный должник, договор, сделка, доказательства, истец, ответчик.

**SOME ASPECTS OF ENFORCEMENT OF OBLIGATIONS THROUGH THE COURT**

**Rajabov Sherzodbek Ravshanbekovich**

Employee of the Ministry of Justice, Master of Law,

Tashkent city, Uzbekistan

E-mail: sherzodbekrajabov@gmail.com

## **ANNOTATION**

This article analyzes the legal basis and importance of ensuring the fulfillment of obligations through the court from a scientific and practical point of view. Also, the specific aspects of issues related to ensuring the fulfillment of civil-legal obligations through the court were analyzed, and suggestions and comments aimed at eliminating problems and shortcomings related to the field were put forward.

**Key words:** court, obligation, duty, creditor, debtor, joint debtor, contract, transaction, evidence, claimant, defendant.

Ma'lumki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 8-moddasida har bir insonning unga Konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlaming samarali tiklanishi huquqiga ega [1] ligi mustahkamlangan.

Shuningdek, Konstitutsiyamizning 44-moddasiga binoan, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlangan bo'lib, so'nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish choralarini kuchaytirish, odil sudlovni samarali ta'minlash hamda sudyalar rolini oshirish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Bunda odil sudlovni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Odil sudlov - bu qonun va u bilan belgilangan tartib tamoyilga qat'iy rioya qilgan holda sudlar tomonidan jinoyat, fuqarolik, iqtisodiy ishlarini va ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va hal qilish bo'yicha huquqni muhofaza qilish faoliyatining turi [2] hisoblanib, har bir shaxs qonunda belgilangan tartibda sud orqali o'z huquqlarni himoya qilishi mumkin.

Avvalo, majburiyat huquqiga to'xtaladigan bo'lsak, majburiyat huquqi fuqarolik huquqi normalarining yig'indisi sifatida mulkiy munosabatlarni tartibga solinadi va shu tufayli majburiyat huquqiy munosabatlar shakliga ega bo'ladi [3].

Fuqarolik huquqi tizimida kichik tarmoqlar o'z navbatida institutlarga bo'linadi. Huquq instituti deganda, unchalik yirik bo'lмаган bir turdag'i ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar yig'indisi majmui tushuniladi. Har bir kichik tarmoq o'z navbatida huquq institutlariga bo'linadi. Masalan, majburiyat huquqi kichik tarmog'i alohida shartnomalar majburiylari institutlariga – oldi-sotdi, ijara, pudrat va shu kabilarga bo'linadi. Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar kichik tarmog'i ham o'z navbatida mulk huquqi, cheklangan ashyoviy huquqlar, ularni himoya qilishning ashyoviy-huquqiy usullari institutlariga bo'linadi.

Majburiyat huquqi shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga mo‘ljallangan huquq normalari tizimidan iborat. Majburiyat doirasida bir shaxsga boshqa shaxsdan (iug in personal) qandaydir harakatlarni sodir etish (taqdim etish) yoki muayyan harakatlarni sodir etishdan saqlanishni talab qilish huquqi tegishli bo‘ladi[4].

Fuqarolik qonunchiligidagi majburiyatlarni bajarilishini ta‘minlash hamda majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik asoslari belgilangan bo‘lib, umumiy tartibda sud orqali talab qilish huquqi mavjud.

Xususan, Fuqarolik kodeksining 1-moddasiga ko‘ra, fuqarolik qonunchiligi ular tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar ishtirokchilarining tengligini e’tirof etishga, mulkning daxlsizligiga, shartnomaning erkinligiga, xususiy ishlarga biron-bir kishining o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘yilmasligiga, fuqarolik huquqlari to‘sinqiliksiz amalga oshirilishini, buzilgan huquqlar tiklanishini, ularning sud orqali himoya qilinishini ta‘minlash zarurligiga asoslanadi.

Mazkur Kodeksning 10-moddasiga binoan, fuqarolik huquqlari protsessual qonunchilik yoki shartnomada belgilab qo‘yilganidek, ishlar qaysi sudga taalluqli bo‘lishiga qarab, sud, iqtisodiy sud yoki hakamlik sudi tomonidan himoya qilinadi.

Qonunda nazarda tutilgan hollardagina fuqarolik huquqlari ma’muriy tartibda himoya qilinadi. Ma’muriy tartibda qabul qilingan qaror ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

Shuningdek, Fuqarolik protsessual kodeksining 3-moddasiga asosan, har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqi yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun fuqarolik sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga (sudga) murojaat qilishga haqli.

Shu bilan birga, Iqtisodiy protsessul kodeksining 3-moddasiga ko‘ra, har qanday manfaatdor shaxs o‘zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun iqtisodiy sudga (sudga) ushbu Kodeksda belgilangan tartibda murojaat qilishga haqli.

Kodeksining 29-moddasig asosan, fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiqib, yuzaga keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan hamda iqtisodiy sudga taalluqli bo‘lgan nizo taraflarning kelishuviga binoan, iqtisodiy sud hal qiluv qarori chiqarguniga qadar hakamlik sudiga ko‘rish uchun topshirilishi mumkin. Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, majburiyatlarni bajarilishini talab qilib umumiy tartibda sudga murojaat qilish huquqi yetarli darajada huquqiy asoslarga ega. Hozirgi kunda mamlakatimizda odil sudlovni amalga oshirayotgan sudyalarining ish hajmini kamaytirish orqali sudlov samaradorligi va sifatini oshirishning muhim usullaridan biri fuqarolik-huquqiy nizolarni sudga qadar hal etishning muqobil usullarini joriy etish tendensiyasidan borilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilning 8-fevralidagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni bilan tasdiqlangan “2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning

beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi”ning 79-bandida sudgacha fuqarolik va xo‘jalik nizolarini hal etishning asosiy tushunchalari, maqsadlari, vazifalari, mexanizmlarini belgilovchi “Yarashtiruv jarayonlari (mediatsiya) to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish belgilangan bo‘lib, 2018-yil 3-iyulda “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni [5] qabul qilindi.

Mazkur Qonunning 3-moddasiga ko‘ra, amal qilishi fuqarolik huquqiy munosabatlardan, shu jumladan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan kelib chiqadigan nizolarga, shuningdek yakka mehnat nizolariga va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga mediatsiyani qo‘llash bilan bog‘liq munosabatlarga nisbatan, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, tatbiq etiladi. Ushbu qonunning qabul qilinishi fuqaroviylar huquqiy munosabatlar hisoblangan majburiyat huquqi taraflari o‘rtasidagi nizolarni ham mediativ kelishuv asosida hal etish huquqini beradi.

Majburiyatlarni bajarilishi sud orqali ta’minlash kreditorning huquqi hisoblanib, qarzdorning o‘z zimmasiga olgan yoki unga yuklatilgan vazifalarni majburiy bajarish usuli hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ayrim istisno holatlarni hisobga olmaganda majburiyatlarni sud orqali ta’minlash oxirgi chora hisoblanib, majburiyat huquqi taraflarining huquqiy ongi va madaniyatiga qonunga va shartnomaga itoatkorligi bilan bog‘liq.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyutsiya 217 A (III) bilan 1948-yil 10-dekabrda qabul va e’lon qilingan.
2. Konstitutsiyaviy huquq. O‘quv qo‘llanma. Mualliflar jamoasi// Mazkur o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi muvofiqlashtiruvchi kengashining 2020 yil 14 avgustdagagi 418-sun qarori bilan nashrga tavsiya etilgan//Toshkent – 2020.
3. Rahmonqulov H.A. majburiyat huquqi (Umumiyy qoidalar). Huquqshunoslik ixtisosni bo‘yicha oliy o‘quv yurtlari “Xususiy huquq” yonalishi magistratura talabalari uchun. -T.: TDYI nashriyoti, 2009. -316 bet.
4. Fuqarolik huquqi: Universitetlarning yuridik fakultetlari, yuridik institut va huquq asoslari o‘qitiladigan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. I qism. I.B.Zokirov; Mas’ul muharrir: H.Rahmonqulov// –T.: TDYUI, 2006. 372-bet.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonun. O‘RQ-482-sun 03.07.2018 y.